

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQINI O'YIN ORQALI RIVOJLANTIRISH VA YAXSHILASH NAZARIYASI

*Tursunova Durdona*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika*

*instituti pedagogika fakulteti*

*"Maktabgacha ta'lim" mutaxassisligi magistri.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'yin orqali rivojlantirish masalasi yoritilgan. Nutqning fonetik, grammatik va leksik jihatlarini shakllantirishda o'yin faoliyatining o'rnini tahlil qilingan. Shuningdek, bolalarning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z boyligini kengaytirish hamda grammatik shakllarni o'rganishida o'yin texnologiyalarining samaradorligi misollar orqali asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha yosh, nutq rivoji, o'yin faoliyati, fonetik rivojlanish, grammatik tuzilish, leksik boylik, tarbiyachi, bolalar nutqi..*

### THE THEORY OF DEVELOPING AND IMPROVING PRESCHOOL CHILDREN'S SPEECH THROUGH PLAY

**Annotation:** *This article discusses the development of preschool children's speech through play-based activities. The role of play in forming phonetic, grammatical, and lexical aspects of speech is analyzed. Examples are provided to demonstrate the effectiveness of play technologies in helping children pronounce sounds correctly, expand their vocabulary, and learn grammatical structures.*

**Keywords:** *preschool age, speech development, play activity, phonetic development, grammatical structure, lexical richness, educator, children's speech.*

### ТЕОРИЯ РАЗВИТИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ЧЕРЕЗ ИГРУ

**Аннотация:** *В данной статье раскрывается вопрос развития речи детей дошкольного возраста посредством игровых методов.*

*Проанализирована роль игровой деятельности в формировании фонетических, грамматических и лексических аспектов речи. Также приведены примеры, подтверждающие эффективность игровых технологий в правильном произношении звуков, расширении словарного запаса и усвоении грамматических форм детьми.*

**Ключевые слова:** дошкольный возраст, развитие речи, игровая деятельность, фонетическое развитие, грамматическая структура, лексический запас, воспитатель, детская речь.

### **Kirish:**

Maktabgacha yosh davr - bu bolalikning eng muhim hamda uning shaxs sifatida kamol topishi, shakllanishi va rivojlanishining qisqa, biroq eng muhim davri sanaladi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin sanalib, o'yin faoliyati davomida ular ham ruhan ham jismonan taraqqiy etadilar. Bolalarga maroq, quvonch bag'ishlab kelgan o'yinlarda ular o'zlarini topishadi, mustaqil bo'lishadi, erkin faoliyat jarayonida hayotni taniy boshlaydilar, atrof-muhitga shaxsiy munosabat shakllana boradi. Alohida e'tirof etish lozimki, didaktik o'yinlar tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, bolaning fikrlash xususiyatlarida, bola shaxsining rivojlanishida, qiziqishlarida, ehtiyojlarida, muloqotida, munosabatida, umuman olganda barcha faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi.

So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. Ayniqsa, o'yin orqali nutqni rivojlantirish bolada tabiiy o'rganish muhiti hosil qiladi. O'yinlar jarayonida bola nafaqat so'zlashni, balki fikrini to'liq ifodalashni, muloqotga kirishishni ham o'rganadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning keyingi bosqichga o'tishlari uchun juda ahamiyatli hisoblanadi. Taniqli olimlar, psixologlar va pedagoglar K. D. Ushinskiy,

A. N. Leontiev, N. K. Krupskaya, L. S. Vygotskiy, A. M. Gorkiy, A. S. Makarenko, B. D. Elkoninlar bola psixologiyasini shakllantirishda o'yinning etakchi o'rnini haqqidagi fikrlarni ilgari surgan. 18-asrda Jan-Jak Russo bolani bilish va tushunish uchun uning o'yinini kuzatish kerakligini ta'kidladi. Bilamizki, kattalardan muloqot uchun tabiiy muhit bu til, bola uchun esa muloqot uchun tabiiy muhit bu o'yin faoliyatidir. O'yinlar orqali bolalar tengdoshlar bilan birgalikdagi muloqotga kirishadilar, bir-birlarini anglash, tushunish, xurmat qilish tajribasiga ega bo'ladilar. O'z xoxishlarini harakatlari va nutqi orqali namoyish etib, o'rtoqlarining istaklari bilan muvofiqlashtirishni o'rganadi. O'yin faoliyatida bolalar erkin, ixtiyoriy xatti-harakatlar tajribasiga ham ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda bola o'yin orqali o'zini nazorat qilishni, o'yin qoidalariga rioya qilishni, kattalar nazoratisiz tengdoshlari bilan birgalikda o'yinni davom ettira olishni o'rganadi. Bu kabi fazilatlarining barchasi bolaning keyingi hayotida tosiqlarni engib o'tishida, muammolarga osonlikcha echimlar topa olishida, kelajakda o'z o'rnini egallashida ko'makchi vazifasini o'taydi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining yetakchi turi bo'lib, ularning nutqiy, aqliy va hissiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Nutqni o'yin orqali rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratiladi:

### 1. Fonetik rivojlanish

Fonetik jihatdan rivojlantirish bolaning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishini, nutq apparatini mustahkamlashni o'z ichiga oladi. "Tovushni top", "Qaysi so'zda bu tovush bor?", "Qo'g'irchoq qanday gapirdi?" kabi o'yinlar orqali bola tovushlarni eshitish va talaffuz qilishni mashq qiladi. Tez aytishlar, she'rlar, tovushli mashqlar bu jarayonni yanada mustahkamlaydi.

### 2. Grammatik rivojlanish

Grammatik tuzilmani o'yin orqali shakllantirishda gap tuzish, so'zlarni moslashtirish, so'z birikmalari yaratish mashqlari muhim o'rin tutadi. "Gapni davom ettir", "Kim nima qiladi?", "Rasm asosida hikoya tuz" kabi o'yinlar bolalarning fikrlash doirasini kengaytiradi va grammatik shakllarni to'g'ri qo'llashni o'rgatadi.

### 3. Leksik rivojlanish

Bolalarning soʻz boyligini oshirish — ularning nutq madaniyatini shakllantirishdagi eng muhim omillardandir. “Ranglarni nomla”, “Ortiqcha soʻzni top”, “Kasblarni ayt”, “Nimani koʻrding?” kabi oʻyinlar orqali bola yangi soʻzlarni oʻzlashtiradi, ularni amalda qoʻllashni oʻrganadi.

Oʻyin faoliyati orqali bola oʻz fikrini erkin ifodalaydi, soʻz boyligini kengaytiradi va nutq madaniyatini shakllantiradi. Tarbiyachining bu jarayondagi roli muhim boʻlib, u oʻyinlarni maqsadli, rejalashtirilgan va yosh xususiyatlariga mos tarzda tashkil etishi lozim.

### **Xulosa**

Oʻyin orqali bolalar nutqini rivojlantirish — bu tabiiy, qiziqarli va samarali pedagogik jarayon boʻlib, bolalarning fikrlash, muloqot qilish va oʻzini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Fonetik, grammatik va leksik yoʻnalishlarni uygʻun qoʻllash orqali bola toʻliq, aniq va ifodali nutqqa ega boʻladi. Shu bois, har bir tarbiyachi mashgʻulotlarda oʻyin texnologiyalaridan faol foydalanishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qodirova F. R. Maktabgacha taʼlim pedagogikasi. – Toshkent: Oʻzbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2020.
2. Gʻulomova D. N. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Ilm Ziya, 2021.
3. Saidova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni oʻyin orqali shakllantirish. – “Pedagogik innovatsiyalar” jurnali, 2022.
4. Karimova S. Oʻyinli texnologiyalar yordamida bolalar nutqini rivojlantirish. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2023.